

MAKTABLARDA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH
TAYYORGARLIK FANINING MAZMUN MOHIYATI**To'xtanazarov Ilhom Ibragimovich***Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi Uslubiy tayyorgarlik sikli
o'qituvchisi zahiradagi Mayor, Dotsent***Mamajonov Firuzbek Baxrom o'g'li***Farg'ona davlat universiteti
harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya; *Ushbu maqolada chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsad va vazifasi, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tabiyalash va ularni harbiy xizmat jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgata oladigan yagona fan ekanligini isbotlashdan iboratdir. «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» fanini o'zlashtirgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga harbiy xizmatga chaqirilgan paytda Vatanni himoya qilishda o'zining Konstitutsiyaviy burchini benuqson bajarishlari va qisqa muddatda ularga ishonib topshirilgan zamonaviy qurollar hamda harbiy texnikalarni bilishlari lozimligi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik, Vatanparvarlik, O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari, Respublika, burch, Mudofaa, harbiy xizmat.*

Annotation: *In this article, the purpose and mission of pre-conscription primary preparedness science is to prove that it is the only science that can tabulate our youth in the spirit of patriotism and teach them to overcome the difficulties that they may face in the process of military service. Students who have mastered the subject of "pre-draft preparation" should impeccably fulfill their constitutional duty in the defense of the motherland at the time of conscription into the armed forces of the Republic of Uzbekistan and know the modern weapons and military equipment entrusted to them in the short term.*

Keywords: *Preliminary preparation until the call, patriotism, Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, Republic, duty, defense, military service.*

Аннотация:

В этой статье цель и задача науки о начальной допризывной подготовке состоит в том, чтобы доказать, что это единственная наука, которая может натурализовать нашу молодежь в духе патриотизма и научить ее преодолевать трудности, с которыми она может столкнуться в процессе военной службы. Учащиеся, освоившие дисциплину «начальная допризывная подготовка», при призыве на военную службу в ряды Вооруженных Сил Республики Узбекистан должны безукоризненно выполнять свой конституционный долг по защите Отечества и в кратчайшие сроки знать вверенное им современное оружие и военную технику.

Ключевые слова: Начальная допризывная подготовка, патриотизм, Вооруженные Силы Республики Узбекистан, Республика, долг, оборона, военная служба.

KIRISH

Yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligida O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni asosida, «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» fani yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, o'rta ta'lim muassasalari uchun majburiy o'quv fani hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi taxdid va hatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

«Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» fani kimyo, fizika, jismoniy tarbiya kabi fanlar bilan uzviy boglangan bolib, bu oquvchilarning kelajakda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatga chaqirilgan paytlarida o'z konstitutsiyaviy burchlarini ado etishga yordam beradi. Yoshlarga harbiy talim berishda ularga qo'shinlarning o'quv-jangovar faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlar kabi mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish nazarda tutiladi. Bu mashqlarni kop marotaba takrorlash natijasida yoshlarda zaruriy harbiy bilim va konikma yuzaga keladi.

O'quvchilarni boshlang'ich harbiy tayyorgarlikka o'qitish tartibi tasdiqlandi:

Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Prezident farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq quyidagilar tasdiqlandi:

Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom;

Ta'lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv-moddiy bazasini 2024-2028 yillarda bosqichma-bosqich mustahkamlash dasturi.

Nizomning normalari umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim muassasalariga tatbiq etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinf o'quvchilari va boshlang'ich professional ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi o'quvchi-yoshlar bir o'quv yili mobaynida mamlakat mudofaa va milliy xavfsizligi sohasidagi qonunchilik hujjatlarining asosiy talablari bilan tanishadi.

Mashg'ulotlarda Qurolli kuchlarning asosiy vazifalari, umumharbiy nizomlari talablari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, ommaviy qirg'in qurolidan himoyalaniish ko'nikmalari va boshqalar tushuntiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlarni davom ettirib, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev: «Ko'zlangan strategik maqsadlarga yetishishda va ularni hayotga toliq tatbiq etishda har tomonlama va puxta tayyorlangan, oz Vataniga sodiq, yuksak kvalifikatsiyali harbiy kadrlarni tarbiyalash, davlat tomonidan ularning

ijtimoiy himoyasini kafolatlash hal qiluvchi va asosiy omildir. Shu bois respublikaning hamma o'quv muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi to'grisidagi fanlarni tatbiq qilish va kuchaytirish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi» deya takidlab o'tdi.



Har bir chaqiriqqacha bo'lgan yoshni tarbiyalar ekanmiz avvalambor biz ushbu yoshlarning siyosiy ongini boyitib borishimiz kerak bo'ladi. Bu borada biz davlatimiz tarafidan chiqarilayotgan qonun va qoidalarga asoslanamiz. O'zbekiston Respublikasining bir qator qonun va qoidalari mavjud bo'lib, ushbu qonun qoidalarga asosan me'yoriy hujjatlar yuritilmoqda. Masalan bulardan: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'grisidagi qonun, O'zbekiston Respublikasining mudofaa to'grisidagi qonuni va O'zbekiston respublikasi Qurolli kuchlari nizom va qonunlarini asoslar sifatida olsak bo'ladi.

Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tabiyalashda umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitilishi asosiy omillardan sanaladi. Mudofaa Vazirligining oliy harbiy o'quv yurtlariga kirib ta'lim olish va Qurolli Kuchlarimizning barcha harbiy xizmat turlarida harbiy xizmatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlarimiz umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik jarayonida kerakli ta'lim-tarbiyani oladilar va o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Mazkur fanni o'rganish O'zbekiston Respublikasining «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'grisida»gi qonun talablarini, O'zbekiston Respublikasining yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha nizomini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining buyruqlari va direktivalarini, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil qilish va olib borish, o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash bo'yicha masalalarni, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi (chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani) bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish tamoyillarini, ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar

boshlang'ich tayyorgarlik fani dasturining barcha bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va olib borishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamonaviy o'quv texnika vositalaridan foydalana bilishni, ta'lim muassasasi direktori va Chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisining majburiyatlarini, hamkorlikda bo'lgan tashkilotlar bilan aloqa shakillarini, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha o'quv - moddiy bazaga qo'yiladigan talablarni bilishlari va ularni amalda qo'llay olishlari uchun yetarli ilm-malaka va ko'nikmalar berishdan iborat.

Hozirgi kunda Qurolli kuchlarimiz tarkibidagi harbiy qism va bo'limmalarni puxta bilimga ega bo'lgan shaxsiy tarkib bilan to'ldirish, uning siyosiy, manaviy, axloqiy ruxiy vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berish muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shaxsiy tarkibning yuqoridagi qayd etilgan sifat va fazilatlarini shakllantirishni, tarbiyalashni faqat harbiy kadrlar tayyorlash bilim yurtlari, qism komandirlari va harbiy boshliqlarning vazifasi deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi.

Ma'lumki armiya safida o'z bo'ysunuvchilarining faoliyatlariga komandir va boshliqlar ma'suldirlar. Lekin sifat va fazilatlarini shakllantirishga kelganda armiya safigacha bo'lgan ta'lim tarbiya o'rnining ahamiyati katta. Ayniqsa umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik fanini sifatli va samarali o'qitilishini ahamiyati bu borada muhim.

Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida muhim vosita bo'lgan buyuk ajdodlarimizning Vatan ozodligi yo'lidagi qahramonona kurashlari, tarixning buyuk namoyandalari, xalq qahramonlari Shiroq, To'maris, Spitamen, Muqanna, hamda buyuk sarkardalar Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur jasoratlarini madh etuvchi ma'ruza va suhbatlar o'tkazilmoqda. Bunday ma'ruza va suhbatlar uyushtirish, turli uchrashuvlar tashkil etishdan maqsad, yoshlarimizni ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni keng va atroflicha o'rganishga, Qurolli Kuchlarimizda xizmat qilish har bir O'zbekiston fuqarosining Konstitutsiyaviy burchi ekanligini, Vatan sarhadlari daxlsizligini, yurtimiz tinchligini ta'minlash muqaddas vazifa ekanligini kishilarimiz ongiga singdirishdan iborat.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlashni tashkil etish, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib borish, «CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» fanining o'qitilishini uslubiy jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek, ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, Davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

«O'z istiqloli va ozodligining qadrini bilmaydigan, uni himoya qila olmaydigan, bunga kuch-qurbi yetmaydigan millat hech qachon erkin yashay olmaydi», degan fikrning tarixiy bir isboti tariqasida «Agar kimki, o'z armiyasini boqmasa, ertaga o'zgalar armiyasini boqishga majbur bo'ladi», degan hikmatni hech qachon unutmaslik zarur, deb o'ylayman. Bu so'zlarda nafaqat chuqur ma'no, balki o'ta achchiq haqiqat ham bor», degan edi birinchi Prezidentimiz I. Karimov.

Shunday ekan o'z-o'zidan bunday dolzarb vazifalarni bajarishda pedagogika universiteti qoshidagi harbiy fakultetlar jamoasining harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha o'z majburiyatlari va vazifalarini sifatli bajarishlari alohida e'tiborga molikdir. Bu borada ayniqsa chaqiruvga qadar

harbiy ta'limni tashkil qilish va uning metodikasi fanini o'qitilishida, Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar strategiyasini tub mohiyatini chuqur anglagan holda, eng zamonaviy o'qitish uslublaridan va ta'lim texnika vositalarini eng so'ngi ishlab chiqilgan rusumlaridan foydalanish, shuningdek, tez o'zgarib borayotgan zamonamizning yangi-yangi talablarini nazardan chetda qoldirmasligimiz shart bo'ladi.

XULOSA

Ushbu maqoladan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maqolada Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsad va vazifasi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. Davlat chegaralarining o'z qo'shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo'riqlanayotgani ham xalqimizning harbiy ruhini yuksaltirib turibdi. Haqiqiy mustaqil davlat shunday ishtutadi, o'z mudofaasini o'zgalar qo'liga topshirib qo'ymaydi. Xalqning umumiy harbiy ruhini ko'tarishda, harbiylarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san'at sirlarini harbiy o'quv yurtlarida o'qitish ham samarali omillardan hisoblanadi. Ushbu maqola kelgusida chaqiriqqacha harbiy ta'limni rivojlantirishda asos bo'lishiga ishonaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. 11-sinf uchun darslik/ Sh. Ubaydullayev, B. Gafurov, D. Ubaydullayeva. Toshkent: «ILM ZIYO», 2018. 200 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Mudofaato'g'risida»gi qonuni. 2018y.
3. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik : 10-sinf uchun darslik/ Sh. Ubaydullayev, B. Gafurov, O. Ortiqov. – Toshkent: «ILM ZIYO», 2017. – 192 b.
4. <https://kun.uz/news/2023/11/14/oquvchilarni-boshlang'ich-harbiy-tayyorgarlikka-oqitish-tartibi-tasdiqlandi>
5. O'zbekiston Respublikasining «Harbiy xizmati utash to'g'risida»gi qonuni. 2019y
6. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» o'quv dasturi 2017 y.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. 2020 y.
8. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni